

# **Nemischa-o'zbekcha tarjimalarda obrazli vositalarning qayta yaratilishi**

**Musayeva Guzal Ne'matillayevna**

**Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi**

## **Annotatsiya**

Ushbu maqola hozirgi zamon tarjimonlari tarjimalarida obrazli vositalar va realiyalarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi tarjimalarda matnning obrazlilik va emotsional rang berish usullari va yondashuvlarini tahlil qilish, shuningdek, badiiy tarjima sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Hikoyalardagi tasviriy vositalar, jumladan personajlarning tavsiflari, dialoglari va monologlari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek she'riy asarlarni tarjima qilishda jumladan badiiylik, obrazlilikni saqlanishi masalasiga ham to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** obrazli vositalar, tarjima, she'riy asarlar, hikoyalar, olmon adiblari, obrazlilik, badiiylik, qiyosiy tahlil, badiiy tarjima.

## **Abstract**

This article is devoted to the study of figurative means and realities in the translations of contemporary translators. The purpose of the research is to analyze the methods and approaches of figurative and emotional coloring of the text in translations, as well as to determine the factors affecting the quality of literary translation. Visual devices in stories are analyzed, including character descriptions, dialogues, and monologues. The article also focuses on the issue of preservation of artistry and imagery in the translation of poetic works

**Key words:** figurative means, translation, poetic works, artistry, German writers, imagery, emotional coloring, comparative analysis, translation efficiency, literary translation.

## **Абстрактный**

Данная статья посвящена исследованию образных средств и реалий в переводах современных переводчиков. Цель исследования – проанализировать методы и подходы образно-эмоциональной окраски текста в переводах, а также определить факторы, влияющие на качество

художественного перевода. Анализируются визуальные приемы рассказов, в том числе описания персонажей, диалоги и монологи. Также в статье уделяется внимание проблеме сохранения художественности и образности при переводе поэтических произведений.

**Ключевые слова:** образные средства, перевод, поэтические произведения, рассказы, немецкие писатели, образность, эмоциональная окраска, сопоставительный анализ, эффективность перевода, художественный перевод.

### **Kirish**

Adabiy asarlar tarjimasi xalqlar o'rtasidagi madaniy almashinuvning ajralmas qismi bo'lib, kitobxonlarga xorijiy adabiyot olamiga sho'ng'ish, uning go'zalligi va teranligini qadrlash imkonini beradi. So'ngi yillarda she'r va hikoyalarni olmon, ingliz, fransuz va boshqa Yevropa tillaridan, ozar, turk, qozoq, xitoy va boshqa Sharq tillaridan o'zbek tiliga o'girish hamda ona tilimizdan xorijiy tillarga tarjima qilishning ommalashayotgani buning dalilidir. Tarjima nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, jumladan – qiyosiy adabiyotshunoslik obyektidir.[3.34]

Garchi hozirgi zamon aksariyat tarjimalarini o'qiganimizda 20-asr tarjimonlarining tarjima asarlaridagi badiiylikni, ichki kechinmalarni, muallif hissiyotlarini to'laligicha his qilolmasakda, ammo manbaa tilidagi zaruriy elementlarni, obrazlarni, hozirgi zamon (olmonlarning)turmush tarzi, madaniyati haqida ancha ma'lumotlar yetkazib berilmoqda. Shunday tarjimalar ham borki, go'yoki bu asarni tarjimon o'zi yozgandek, chunki asliyat muallifining hissiyotlari, kechinmalarini tarjimon o'z hissiyotlari, o'z qalb kechinmalari deb qabul qilgan. Zero buyuk yozuvchi O'tkir Hoshimov aytganidek, ijodkor faqat o'z ruhiga yaqin asarni tarjima qilishi kerak. Tarjimada u aytmagan so'zlarini aytish imkonini topadi.

Biroq, tarjimonning, ayniqsa, asl matn uslubi va estetikasining asosiy elementi bo'lgan tasviriy vositalarni yetkazib berishda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy holdir. Muvaffaqiyatli tarjimada asl nusxaning mazmuni va syujetini

yetakzish bilan birga uning estetik va badiiy sifatini ham saqlab qolinishini alohida ta'kidlash lozim. Shuning uchun tarjimalarda tasviriy vositalarni tahlil qilish badiiy tarjimaning murakkabliklari va xususiyatlarini tushunish uchun zaruriy bosqichga aylanadi.

Olmoncha she'riy asarlarni tarjima qilish, ayniqsa, matnning obrazlilik va hissiy bo'yoqlarini yaratishda muhim rol o'ynaydigan semantik yukni emas, balki ritm, qofiya, shuningdek, vizual vositalarni ham saqlab qolish zarurati bilan bog'liq. She'rlarni tarjima qilishda nafaqat ma'no va umumiy g'oyani yetkazish, balki asliyatning musiqiyliigi, estetik qimmatini ham saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Asosiy jihatlardan biri - misraning ritmi va metrikasini saqlab qolishdir. Tarjimon nafaqat ma'noni anglatuvchi, balki asl nusxaning tuzilishi va ohangiga ham mos keladigan so'z va iboralarni izlashi kerak. Keyingi muhim nuqta qofiya va onomatopeyani saqlab qolishdir. Zero bunda ham mazmun birinchi o'ringa chiqadi.

Qofiyali she'rlar odatda ohangdorlikda qat'iy izchillikka ega bo'lib, tarjimon she'rning qofiya va ohangini saqlab qolish uchun so'zlarni diqqat bilan tanlashi kerak. She'rlarda qo'llanilgan obraz va metaforalarni yetkazish ham birdek muhim. Ba'zi tasvirlar yoki metaforalar turli madaniyatlar uchun turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin va tarjimon mos iborani tanlashda buni hisobga olishi kerak. Ushbu tasvirlar bilan bog'liq hissiy ohanglar va assotsiatsiyalarni etkazish uchun tarjimon ifoda vositalarini diqqat bilan tanlashi kerak. Masalan, Gyunter Grass yoki Herman Hesse she'rlarining tarjimalari tarjimonlarning asl tasvir va metaforalarni, shuningdek, ritm va qofiya nozikliklarini saqlab qolish bilan qanday shug'ullanganligini ko'rsatadi. H.Hessening "Cho'l bo'risi" asarining M.Akbarov tomonidan o'girilishi olamshumul voqea edi va u haqda juda ko'p ijodiy fikrlar yog'ildi, jumladan Sh. Karimov, "Til va uslub jihatidan o'ziga xos, yuksak did bilan yozilgan asar tarjimasi o'quvchidan katta e'tibor talab qiladi"[2.124]

Hozirgi zamon tarjimonlaridan X.Rahimov("Gasele von Nawoi", "Meine Schwarzäugige"), M.Akbarov("Cho'l bo'risi"), Poshali Usmon("Faust")yosh tarjimon Oybek Ostanovlarlarning("Der Granatapfel") tarjimalarida asosan

syujetga, muqobil soʻz tanlashga eʼtibor qaratib xos soʻzlarning oʻzbekcha muqobilini mohirona tanlay olgani, Sh. Salimova tarjimalaridagi badiiylik, unga ohang va jilo berish sanʼati natijasida milliy tarjimalarning paydo boʻlishi oʻzbek adabiyotida tarjimachilikning qadrini oshirishi shubhasiz.

Hozirgi zamon olmon yozuvchilarining asarlarini tarjima qilish, ayniqsa, matnning oʻziga xos muhiti va hissiy teranligini yaratadigan vizual vositalarni yetkazib berish ham qiyin vazifadir. Tarjimashunos olim Gʻ. Salomovning taʼbiri bilan aytganda “...Milliy his-tuygʻular sheʼrning joni. Sheʼrni soʻz va jumla, gap bilan emas, sheʼrni sheʼr bilan, tuygʻuni tuygʻu bilan, kuyni kuy bilan berish kerak”. [1.128]

Zamonaviy olmon shoiri Yan Vagnerning “Tashriflar” sheʼrini Raxmat Bobojon oʻzbekchada soʻzma-soʻz va aniq yoritib bergan. U sheʼrdagi “Gaslaternen”, “Staatquartet” soʻzlarini “shamchiroq”, “musiqa” soʻzlari orqali shoirning maqsadini yetkazib bera olgan.

”Ehtimol, kuz nafasidan diydirab, eski moychiroqlardek

Xira tortgan qabogʻimiz ham...”. Ammo sheʼrda soat strelkasiga oʻxshagan shoxdor qoʻngʻiz “Hirschkäfer”ni oddiy qoʻngʻiz deb berib ketgani kitobxonda ozgina noaniqlikni tuydiradi. Garchi sheʼrda badiiy his tugʻular, obrazlilik unchalik boʻrttirilmagan boʻlsada, tarjimon oʻzining joʻshqin hissiyotlarini qoʻshib sheʼrga ozgina badiiylik, jilo bera olgan.

Toʻgʻri, sheʼrni tarjima qilishdan asosiy maqsad nafaqat syujet va dialogni yetkazish, balki asl nusxadagi uslub va obrazlilikni saqlab qolishdir, ammo bunday erkin janrdagi sheʼr muallif maqsadining tubiga yetilsa, badiiy vositalarni toʻgʻri oʻgirilsa sheʼr qayta yaratilar edi.

A.Qahhorning realiyalarga boy “Oʻgʻri” qissasidagi milliy xos soʻzlarning olmon tiliga O.Ostanov tomonidan dadillik bilan oʻgirilgani taqsiqga loyiq, ammo bu mardonavor tarjimada albatta kamchiliklar bisyor. Toʻgʻri, soʻzlarning tarjimasi imkon qadar berishga harakat qilingan, ammo badiiy va tasviriy vositalar (M. “Boshqorongʻi boʻl- evida boʻl”, “shashti qaytdi”)aniq ravshan yoritib berilmagan, undan tashqari tarjimon “yaktak”, “keli”, “harom” “mahsi”, “paranji”

kabi soʻzlarni Transliterasiya orqali berganida, oʻquvchi oʻzbeklarning turmush tarzi va madaniyati haqida yanayam aniqroq tasavvurga ega boʻlishar edi. [5].

Hikoyalardagi vizual vositalar koʻpincha atrofda dunyoni tasvirlash, qahramonlarning shaxsiyati va ichki monologlari orqali namoyon boʻladi. Tarjimon bu tasvirni shunday yetkazishi kerakki, toki oʻquvchi asl nusxadagi kabi muhit va hissiy kayfiyatni his eta olsin. Hikoyalarni tarjima qilishning asosiy jihatlardan biri bu personajlarning dialog va monologlarini ularning individualligi va nutq uslubini saqlab qolgan holda qayta yaratishdir. Bu tarjimondan nafaqat soʻzlarni toʻgʻri tarjima qilishni, balki personajlarning madaniy va lingvistik xususiyatlarini ham tushunishni talab qiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon tarjima asarlarda obrazli vositalarning, xos soʻzlarning qayta yaratilishi, asl nusxaning mazmuni va syujetini yetkazish bilan birga uning estetik va badiiy sifatini ham saqlab qolish natijasida muvaffaqiyatli milliy tarjimalar dunyoga keladi. Matnning obrazlilik va muhitini yaratishda vizual vositalar, obrazli vositalarni toʻgʻri talqin qilish muhim oʻrin tutadi va ularni toʻgʻri yetkazish tarjimondan ijodkorlikni, til va madaniyatni chuqur bilishni talab qiladi. Shuningdek, biz tarjimaning muvaffaqiyatli boʻlishi koʻplab omillarga, jumladan, madaniy kelib chiqishi, manba va maqsad tillarning uslubi va xususiyatlariga, shuningdek, tarjimonning individual xususiyatlariga, bogʻliqligini yuqoridagi misollar orqali yana bir karra ishonch hosil qildik. Bu boradagi izlanishlar kelajakda badiiy tarjima sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gʻaybulloh as – Salom “Ezgulikka chogʻlan odamzod”. Asarlar. Ikkinchi kitob. ”Sharq” nashriyoti, Toshkent 1997
2. Karimov Sh. Nemis adabiyoti tarixi //Mumtoz so'z. Toshkent, 2010,-B. – 2010. – T. 136.

3. Qosimov A. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA RETSEPTIV-ESTETIK TAMOIYILLAR //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – С. 470-474.
4. Simurgh. Anthologie deutscher Gegenwartslyrik in Zentralasiatischen Sprachen. Almaty und Taschkent, Goethe-Institut, 2022.
5. O. Ostanov “Granatapfel”. Toshkent 2010 y.